



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
19-sentabr
N:38
(66839)

TONG yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**O'ZBEKISTON BOLALAR SALOMATLIGINI
MUSTAHKAMLASH
BORASIDA KATTA G'AMXO'RLIK
KO'RSATILAYOTGAN ENG ILG'OR
YETAKCHI O'N MAMLAKAT SAFIDAN JOY OLDI**

GUMBURLAGAN SADOLAR ZAVQI

Kozim O'LMASOV, Olovuddin O'RIPOV olgan suratlari



XALQARO E'TIROF MUBORAK, YURTIM!

Aziz bolajonlar,
xushxabarni
eshitdingizmi, jonajon
O'zbekistonimiz «Save
the children»
 («Bolalarni asraylik!»)
 xalqaro tashkiloti
 tomonidan tuzilgan
 jahon reytingida
 bolalar salomatligini
 mustahkamlash
 borasida katta
 g'amxo'rlik
 ko'rsatilayotgan eng
 ilg'or yetakchi o'n
 mamlakat qatoriga
 kirdi.

Bu esa mamlakatimiz
Sizning salomatligingiz,
kelajagingiz, demakki,
yurt istiqboli yo'lida
alohida g'amxo'rlik
ko'rsatayotgan davlat
ekanining yana bir
isboti bo'ldi.

Kuni kecha poytaxtlik o'quvchilar
yana bir ajoyib shodiyonaning guvohi
bo'lishdi. «Barkamol avlod»
Respublika bolalar badiiy ijodiyot
markazi (avvalgi Respublika
o'quvchilar saroyi)da yurtimiz
Mustaqilligining 20 yilligi hamda
yangi o'quv yili munosabati bilan
an'anaviy «Ochiq eshiklar kuni»
tadbiri o'tkazildi.

Davomi 2-betda

NIHOLLARIM BO'Y CHO'ZMOQDA

Mustaqilligimizning 20 yilligi bizning 49-maktabimizda ham katta tantana bilan kutib olindi. Kuy qo'shiqlarga, raqslarga ulandi.



Maktab rahbari
S.XUDOYQULOV o'quvchilarga
Prezident sovg'alarini
topshirmoqda.

Maktabimizda 3312 nafar o'quvchi bo'lib, ularga 44 nafar o'qituvchilar saboq beradi. O'tgan 20 yil

davomida sobiq o'quvchilarimizning qirq nafardan ziyodi ustozlik kasbini egallab, tuman va viloyat maktablarida o'quvchilarga dars bermoqdalar. Men ham 19 yildirki, o'zim ta'lim olgan o'quv maskanida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berib kelmoqdaman.

Bu mashaqqatli va sharaflı kasbni ulug'lab, e'zozlab kelishimda, albatta, maktabimizning sobiq rahbari, fidoyi ustoz, marhum Z.Pardayevning hissasi katta. Bugungi kunda ularning ezgu ishlarini davom ettirayotgan S.Xudoyqulov maktabimizdagi barcha ibratli ishlarimizga bosh-qosh.

Ustozlarning ish tajribalarini faoliyatim davomida qo'llab kelmoqdaman. O'quvchilarimsiz biror kunimni tasavvur qilolmayman. Bolajonlarga saboq berish jarayonida charchoqni ham sezmayman.



Birgalashib
«Tong yulduzi»
o'qiyamiz.

Mohiralar, eh-he, qay birini tilga olay, o'zlarining alohida xususiyati bilan meni quvontiradi. Aminmanki, nihollarim yuqori sinflarda ham a'lo o'qishlari-yu namunali xulqi bilan ustozlar ishonchini oqlashadi.

Sayyora MIRZAYOROVA,
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi
49-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

(Boshi 1-betda)

Tadbiirni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, turli to'garaklar vositasida ularni kasbga yo'naltirishdan iborat bo'ldi.

Taniqli san'atkorlar Xolmurod va Elmurod Islomovning shogirdlari bo'lgan yosh doirachilar dastasi a'zolari ijodiyot markazi tomon oshiqayotgan o'quvchilar, ota-onalar hamda mehmonlarni doiralarning gumburlagan sadolari ostida qarshi oldilar. Tantanada so'zga chiqqan el ardog'idagi hofiz G'ulomjon Yoqubov san'at yo'lidagi ilk qadamlarini mana shunday to'garaklardan boshlagani,

bugungi kunda yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarga havas qilayotgani haqida to'liqlanib gapirdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Elmurod Islomovning yetti yoshidan doira to'garagiga qatnagani, musiqa-

ning sehrli olami hayotining mazmuniga aylangani haqidagi xotiralar bolajonlarning diliga cho'g' solgan bo'lsa, ne ajab?! Anjumanda ishtirok etgan taniqli shoirlar Muhiddin

Omon va Axtamquli o'qigan she'rlar davraga yanada fayz kiritdi. Shundan so'ng, davra bolalar ixtiyoriga topshirildi. Ular ijrosidagi sho'x qo'shiqlar, quvnoq raqslar yig'ilganlarni birday mamnun etdi. Turli to'garaklarda shug'ullanayotgan o'quvchilar tomonidan yasalgan buyumlar ko'rgazmasi mehmonlarni befarq qoldirmadi. Qo'li gul bolajonlar mehnatidan hayratimiz oshdi.

Sir emaski, bugungi yoshlarda yaratuvchanlik ishtiyoqi kuchli. Iqtidorli ijodkor bolalar safi kengayib boryapti. «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi kabi muassasalar ularga qanot bo'lishi shubhasiz.

O'z muxbirlarimiz

Aziz o'quvchilar,
bilim va hunarlar
qasriga
MARHAMAT!



«TONG YULDUZI»NING «UKASI»

Tahririyatimizga deyarli har kuni turli viloyatlardan ketma-ket qo'ng'iroqlar bo'lib turadi. Bizga e'tibor bilan qarayotgan ota-onalar, ustozlar-u o'quvchilarimizdan minnatdormiz!

Gazetamizning navbatdagi soni tayyorlanayotgan paytda Buxorodan qo'ng'iroq bo'ldi:

– Allo, bu «Tong yulduzi»mi?

– Assalomu alaykum, xuddi shunday!

– Men G'ijduvon tumanidagi 56-maktab o'qituvchisi Nasiba Turpova bo'laman. «Tong yulduzi» bizning sevimli nashrimiz. Maktabimizda gazetangizning ukasi bor: «Tong yulduzi» nomli devoriy gazetamizga sahifalaringizdagi eng qiziqarli, dolzarb maqola, xabar va lavhalarni, yaxshi she'rlarni ko'chirib bosamiz.

– Juda xursandmiz. Hamkorlik qilib tursak, yaxshi bo'ladi, albatta. Barchamiz bir maqsad – yosh avlod ta'lim-tarbiyasi yo'lida xizmat qilayotgan ekanmiz, gazetamizni har bir sinfga kirib borishini istaymiz.

O'z muxbirimiz

HASHAR



Bu yilgi ta'til kunlarimni qishloqda, bobomlarnikida o'tkazdim. Bobomning uylari ta'mirdan chiqarilayotgan ekan.

Ta'til taassurotlari

Bir kuni bobom bilan qishloqqa nahorgi oshga bordik. Bobomning Qodir ismli do'sti nabirasini olib kelgan ekan. Men u bilan do'stlashib oldim, ismi Abdulla ekan... Oshdan qaytib, bobom ikkimiz ishini boshlab yubordik. Men o'sha kuni ter to'kib ishladim, nafaqat men, balki usta amakilar, bobom va buvim ham charchab qolishdi. Holdan toyib kechqurun yostiqaq bosh qo'ydim-u, uxlab qolibman. Bu hol uch kun davom etdi. Uch kundan so'ng bobom hamma oshna-og'ayinlarini yig'ib, hashar uyushtirdi. Unga Abdulla ham keldi. Biz hashar yo'li bilan ishini bir kunda tugatdik. Kechqurun esa Abdulla: «Kuch birlikda» deganlari shu bo'lsa kerak, dedi yelkamga qoqib...

Hozirda qishloqdagi do'stim bilan xat yozishib turibmiz.

Siyovush UMAROV,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-
maktabning 8-sinf o'quvchisi



DARSLIKLAR IJARASI

Ularning to'lovi qanday?

Biz ushbu savolga javob olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Axborot xizmati bilan bog'landik. Axborot xizmati xodimlarining ta'kidlashicha, darsliklarning ijara narxi respublikamizning barcha maktablarida bir xil. Quyida biz vazirlikning www.uzedu.uz saytiga joylashtirilgan darsliklarning ijara

to'lovi haqidagi ma'lumotni e'lon qilmoqdamiz.

2011–2012-o'quv yilida umumta'lim maktablarini darsliklar bilan ta'minlash ijara tizimiga kiritilgan ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun darsliklar to'plamiga belgilangan yagona ijara to'lov miqdori:

To'plamga kiritilgan darsliklar to'yxati		To'plamdagi darsliklar soni	Darsliklar to'plami uchun bir yillik ijara to'lovi miqdori (so'm)
2	Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Axborotdagi olam, Odobnoma, Tasviriy san'at, Musiqa, Jismoniy tarbiya.	9	6 600
3	Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Tasviriy san'at, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya.	9	7 400
4	Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya.	8	7 900
5	Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Botanika, Tabiiy geografiya, Informatika, Vatan tuyg'usi.	9	6 300
5*	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Botanika, Tabiiy geografiya, Informatika, Vatan tuyg'usi, Chet tili.	10	7 200
6	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, Tarix, Matematika, Fizika, Botanika, Informatika, Geografiya, Vatan tuyg'usi.	10	5 500
6*	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, Tarix, Matematika, Fizika, Botanika, Informatika, Geografiya, Vatan tuyg'usi, Chet tili.	11	6 100
7	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Informatika.	13	6 400
7*	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Informatika, Chet tili.	14	7 000
8	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, O'zbekiston davlat va huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika va hisoblash texnika asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Chizmachilik.	16	9 700
8*	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, O'zbekiston davlat va huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika va hisoblash texnika asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Chizmachilik, Chet tili.	17	10 300
9	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika va hisoblash texnika asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Chizmachilik.	16	10 000
9*	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika va hisoblash texnika asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Chizmachilik, Chet tili.	17	10 700

Izoh: 1. * sinf to'plami chet tili darsligi bilan, 3 ta darslik (Ingliz tili, Nemis tili va Fransuz tili).

2. Yo'qotilgan yoki yaroqsiz holda keltirilgan bir dona darslik 1 2064 – Nizomning 52-bandiga asosan tiklanadi yoki to'planadi.

R.JABBOROV tayyorladi

USTOZNING SO'ROVI KO'P



Uyimizga yaqin yerda joylashgan maktabga ertalablari shoshib borayotgan o'quvchilarga ko'zim tushganda, yayrab ketaman. Bolalarning ilmga chanqoqliklaridan quvonasan kishi. Beixtiyor bir tanishimning afsus bilan: «Qani endi bolaligimga qaytib qolsam, mana shunday maktablarda o'qisam. Men, albatta, akademik bo'lardim...»,

degan gaplari yodimga tushadi.

Ochig'i, do'stimning gapida jon bor. Hozirgi kunda maktablar, ulardagi shart-sharoitlar, jihozlar har qanday rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim maskanlaridan qolishmaydi. Ayni chog'da mamlakatimizdagi ta'lim-tarbiyaga e'tibor ko'plab davlatlarga ham ibrat qilib ko'rsatilmoqda.

Tunov kuni ishdan qaytayotib, uzoq yillardan buyon maktabda o'qituvchilik qilib kelayotgan Zaynab opa bilan gurunglashib qoldik. U kishi har doimgidek maktab hayotidagi yangiliklardan to'liqlanib so'zlay ketdilar. Bir zumda qay bir shogirdlari qanday yutuqqa erishgani, qaysi o'quvchisining iqtidorli ekanligidan boxabar bo'ldim. Xuddi shu payt yonimzdan o'tib ketayotgan uch-to'rt nafar yigitchalar to'xtab, salom berishdi. Ma'lum bo'lishicha, ular Zaynab opaning sobiq o'quvchilari ekan. Opa xuddi o'z bolalari kabi ularning har biridan hol-ahvol so'ray boshladi. Yigitlar ham g'urur bilan qilayotgan ishlari, o'qiyotgan oliygoahlari haqida gapirib berishdi. Ular orasidagi o'zini biroz o'ng'aysizroq tutayotgan bir yigit diqqatimni tortdi. Zaynab opa ham o'sha yigitchani savolga tutdi:

– Sening ishlaring qalay, Rustamjon, qayerda o'qiyapsan?

– Hali o'qishga kirganim yo'q. Bu

vil harakat qilaman, – dedi u qizargancha...

Bolalar bilan xayrlashgach suhbatimiz qovushmadi. Nihoyat, Zaynab opa yorildi:

– Rustam sinfning eng a'lochisi edi. Keyingi paytlarda o'qishni tashlab qo'ydi. O'ziga haddan ziyod ishonib qolgan ekan. Mana oqibati...

Zaynab opaning biroz avvalgi kayfiyatidan asar ham qolmagan, xomush tortib qolgandi. Unga qarab ustoz degan zotning naqadar buyukligiga yana bir bor amin bo'ldim. Sobiq o'quvchisi uchun bunchalar qayg'urayotgani har qanday kishini to'liqlantirib yuborardi.

Bilimdon bolajonlar, bilimingizni yanada boyiting. Qimmatli vaqtigingizni behuda o'tkazmang. Ustozlarning sizdan so'rovlari ko'p. Chunki ular bunga haqli. O'shanda Rustamjonning holatiga tushmang, deymen.

Yusuf ABDULLAYEV



Ixtisoslashtirilgan Respublika kasb-hunar kollejiga nogironligi bo'lgan, viloyat va tuman bandlikka ko'maklashuv va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy markazlarining yo'llanmalari asosida imkoniyatlari cheklangan o'g'il-qizlar o'qishga qabul qilinadi.

Ushbu maskanda ko'plab iqtidorli o'quvchilarni uchratish mumkin. Jumladan, «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovi g'olibi Jasur Jumayev bugungi kunda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti talabasi. Eshitish qobiliyatini yo'qotgan o'smirlar o'rtasida Shveysariyada o'tkazilgan Butunjahon Olimpiada o'yinlarida shaxmat bo'yicha oltin medal sohibi Sirojiddin Zayniddinov yilning eng yosh chempioni, deya e'tirof etilib, Diplom va

Ba'zan o'qishni, o'rganishni zo'rlamay, bekorchilikdan ko'cha chag'itib yurgan bolakaylarni ko'rib, xafa bo'lamiz, achinamiz. Biroq, imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarning bilim olishga, hunar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini, za'fini ko'rib hayratlanamiz, havas qilamiz.



**G'AYRATINGIZGA
KO'Z TEGMASIN!**

«Shuhrat» medali bilan taqdirlangan. Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin.

Mazkur yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb nomlanishi kollej o'quvchilarining kasb o'rganishlariga yanada keng imkoniyatlar yaratdi. Bu yerda tikuvchilik, to'quvchilik, radio-texnika va teleapparaturlarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, kompyuter

ta'minoti, poyabzal tikish, buxgalteriya ishi kabi yo'nalishlarda o'quvchilarga saboq berilmoqda.

– Men kar-soqov guruhining tikuvchilik bo'limi rahbariman, – deydi yetakchi ustozlardan biri Shohida opa Yo'ldosheva. – 12 yildan buyon guruh

rahbarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha uslubiy kengash raisi bo'lib faoliyat yuritmoqdaman. 34 yillik ish tajribamdan kelib chiqib aytamanki, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari talaygina. To'g'ri, tortinchoqligi, ko'pchilikka aralashmasligi bor. Ammo ulardagi ta'riflab bo'lmaydigan g'ayrat-shijoatdan, kuchli qiziqishdan ibrat olsa arziydi, ularga dangasalik mutlaqo begona.

O'quvchilarimning har biri bir olam, ular bilan ishlash juda qiziqarli. Shu sababdanmi, gohida o'quvchilar bilan «Vaqt chopib o'tdimi yo uchib o'tdimi», deya hazillashamiz.

Ustoz Shohida opa bilan kollej o'quvchilari haqida suhbatlashar ekanman, ularning ko'zlarida mehri, so'zlarida hayajonni payqadim. Angladimki, bu maskanning o'quvchilari ishonchli qo'llarda, chunki ularning Shohida opadek mehribon, shirinso'z, bag'rikeng ustozlari bor.

**Feruza
SOYIBJON qizi**



KATTA RASSOM BO'LAMAN!

**Rasmlar
ko'rgazmasi**

Aziz bolajonlar, ko'rgazmamizdagi mana bu rasmlarni 6 yoshli qizaloq chizgan, desak ishonasizmi? Yo'q, deysizmi? Avvaliga biz ham ishonmagandik. Lekin onasi qo'lidan yetaklab tahririyatimizga olib kelgan Sevinchbonu ismli qizcha bilan suhbatlashganimizdan so'ng fikrimiz o'zgardi. Yoshiga nisbatan ancha dadil, aqlli, ziyrak qizaloqning savollari shunaqangi ko'p ekanki, barchasiga javob berishga ulgur olmay ham qoldik. Aslida-ku, rasmlari yuzasidan bizning ham unga atalgan savollarimiz ko'p edi...



– Qizim to'rt yoshidan rasm chiza boshlagan, – deya so'z boshladi onasi Nilufarxon opa maqsadimizni anglab. – Poytaxtdagi 445-maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnab yurgan kezlari edi. Bir kuni mashg'ulotlar jarayonida qizimdagi qobiliyatni payqagan tarbiyachisi Shamila opa: «Qizingiz ranglarni yaxshi ajratadi. Uni to'garaklarga olib borsangiz, yaxshi bo'lardi», deb qoldi. Aslida qizimdagi rasm chizishga bo'lgan havasni sal ilgariroq payqagan edim. Odatda, yosh bolalar kattalar bilan do'konga kirisha, shokoladmi, muzqaymoqmi, qo'ying-chi, biror-bir shirinlik oldirish payida bo'ladi. Sevinchbonu esa rangli qalam, albom, moybo'yoq kabi rassomlik anjomlarini oldirardi. O'xshasa-o'xshamasa rasm chizib, hammaga ko'rsatadi. Biror yerini o'xshatolmay

qolsa, ko'nglidagidek chiqmaguncha qayta-qayta chizaveradi. Tunov kuni chizayotgan qo'g'irchog'ining etigini o'xshatolmay, yig'lab ham yubordi. Rasmi yaxshi chiqquncha uxlamasdan chizaverdi, chizaverdi...

Xullas, Shamila opaning maslahatiga amal qilib, Nilufarni «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markaziga olib bordim. O'shanda u besh yoshda edi. Mana ikki yildirki, mazkur to'garakka muntazam qatnab, ustoz Ahmad akadan rassomlik sirlarini o'rganib kelmoqda. Yaqinda bo'lib o'tgan «Mening sevimli qahramonim» ko'rik-tanlovida 2-o'rinni egallagan kuni Sevinchning sevinganini bir ko'rsangiz edi...

– **Katta bo'lsang, kim bo'lasan?**
– **so'raymiz qizchadan.**

– Kat-ta-kon rassom bo'laman! – deya javob berdi u qat'iy ishonch bilan. Toshkentdagi 243-maktabning 1-«A» sinfiga qadam qo'ygan Sevinchbonu Shavkatovadagi o'ziga bo'lgan ishonch va qat'iyatga havas qilsa arziydi.

Zuhra MUHSIMOVA suhbatlashdi.
(Surat muallifniki)



Munavvar FOZILOVA, 8-«B» sinf o'quvchisi.
Maktabning eng bilimdon, zukko
o'quvchilaridan. Ko'p kitob o'qishi, fan
to'garaklariga muntazam qatnashi, maktabda
o'tadigan barcha tadbir, bayram va
tantanalardagi faol ishtiroki bilan
maktabdoshlariga namuna bo'la oladi. Mustaqil
ravishda til o'rganyapti.

Zaynura
JAHONQULOVA, 5-«B»
sinf o'quvchisi. A'lochi,
jamoatchi, intiluvchan
qiz. Ustozlarining
topshiriqlarini vaqtida
bajaradi. O'zi a'lo o'qibgina
qolmay, o'zlashtirishda
qiynalayotgan sinfdoshlaridan
ham beminnat ko'magini
ayamaydi. Doimo qo'li
ko'ksida, kattalarga
hurmatda, kichiklarga izzatda.

A'LOCHILAR DOSKASI

Eldor DONIYOROV,
6-«A» sinf o'quvchisi. U
barcha fanlarni a'loğa
o'zlashtiradi. Sinfdoshlarini
ortidan ergashtira olish
qobiliyatiga ega. Ustozining
«o'ng qo'li» sanaladi.

Aziz o'quvchilar, mana, yangi o'quv yilining birinchi oyi ham
ozirlab qoldi. Barchangiz fuxta bilim olish, a'lo baholarga o'qish
uchun astoydil harakatni boshlab yuborganingizga shubhamiz yo'q.
Xodgingizda bo'lsa, a'lochi va odobli o'quvchilarni barchaga ibrat
qilish maqsadida gazetamizda «A'lochilar doskasi»ni tashkil
qilgan edik. Bu o'quv yilida ham ana shu an'anani davom ettirish
niyatidamiz va unda 2010-2011-o'quv yilini muvaffaqiyatli
yakunlagan Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 16-umumta'lim
maktabining eng a'lochi o'quvchilari suratlari o'lon qilishni
lozim topdik.

Zarina JANOQULOVA, 8-«A» sinf o'quvchisi.
Sinfdoshlari orasida bilimga chanqoqligi,
tirishqoqligi bilan ajralib turadi. U fanlarni
o'zlashtirish bilangina cheklanib qolmay, jamoat
topshiriqlariga ham mas'uliyat bilan yondashadi.
Maktabdagi bir necha fan to'garaklari a'zosi,
tadbirlarning eng faol ishtirokchilaridan.

Bu a'lochi o'quvchilarning
har biriga «Maktab faxri» deya ta'rif
bersak arziydi.
**KO'RING, HAVAS QILING, SIZ HAM
SHUNDAY SHARAFLI NOMGA ERISHING!**
Maktabingizdagi a'lochi o'quvchilarni
sahifamizga tavsiya qiling.
Maktublaringizni kutamiz.
TAHRIRIYAT

KO'ZMUNCHOQLAR ATAB

QO'YDI...



Baxtjon
ISROILOVA,
Jizzax Davlat
pedagogika
instituti qoshidagi
2-sonli akademik
litsey o'quvchisi

Ko'ksiga tez qadai desam, Istiqlolim,
Allaqachon yigirmaga to'libdi-ya!

Mehribonim, donishmandim, buvijonim,
Uchta munchoq ko'p bersangiz ne qilardi?
Ona yurtning qutlug' yoshli ayyomiga,
Nabirangiz sovg'asi ham naqd bo'lardi.

Buvi, Sizdan o'rganganman topqirlikni,
Kelajakni umidlrim bilan bezay!
Qolgan o'sha uch munchoqni Vatanimga,
Yurakdagi muhabbatdan o'zim yasay!

Munchoqlarim biri bo'lsin yurtga qalqon,
Yana biri – kelajakka ishonch, imkon.
Asraganim sening uchun mag'rur sha'nim –
Gard, g'ubordan asrab tursin seni har on!

Mitti yurak shodligidan zavqlanishin,
Istiqlolning sharofati, deya yo'ydi.
Bo'yaringga ko'z tegmasin, Vatanjonim,
Erka qizing ko'zmunchoqlar atab qo'ydi...



Buvijonim men tug'ilgan kunimga deb,
Bittagina ko'zmunchoqni atab qo'ydi.
Bo'yaringga ko'z tegmasin, bolajonim,
Deya uni ko'ksimga tez qadab qo'ydi.

Shu ondankim go'yo yakka edim elda,
Bu dunyoning sitamlari mendan yiroq.
Buvijonim munchoqdagi mehri asrar,
Pok qalbinga noqis gardlar yuqsa ozroq.

Bir-bir sanab ko'rsam, qarang, munchoqlarim,
Roppa-rosa o'n yettita bo'libdi-ya!



Muxlisa
RAIMOVA,
O'zMU qoshidagi
S.Sirojiddinov
nomli akademik
litsey o'quvchisi

KUZ KELDI

Sirli tuyg'ularni solib yurakka,
Oltin yaproqlarni sochib yo'lakka,
Dillarni to'ldirib orzu-istakka,
Marjon yomg'ir ila kuz kirib keldi.

Daraxtlar kuzatar uchgan yaprog'in,
Qsmon ato etar marjon bulog'in,
Yuraklarga berib hayot so'rog'in,
Umrinni so'roqlab kuz kirib keldi.

Daraxtlar hosili g'arq pishgan chog'da,
Hayot qaynar go'yo uzzu-kun bog'da,
Fayz kira boshladi yana qishloqqa
Ko'zni quvontirib kuz kirib keldi.

HAM IJODKOR,
SHIFOKOR

Ushbu rukn ostida bolalar adiblari ijodidan namunalar berib borish yaxshi bir an'anga aylangan. Sahifamizning bu galgi mehmoni turli janrlarda qalam tebratib kelayotgan ijodkor-shifokor Iskandar Rahmon bo'ladilar. Ustozning yigirmadan ziyod nasriy, nazmiy to'plamlari chop etilgan, ko'plab she'rlariga kuy bastalanib, tanikli xonandalar tomonidan ijro etib kelinmoqda.

Yaqinda ijodkorning «Asra, bolam, o'zingni!» nomli she'riy to'plami qo'limizga tushib qoldi. Kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan mazkur to'plamda bolalarimiz uchun zarur bo'lgan soha – hayotda uchraydigan favqulodda xavf-u xatarlardan saqlanishga oid she'rlar jamlangan.

Xalqimizda «Falokat oyoq ostida» degan ibora bor. Hayotda turli favqulodda hodisalar, ya'ni yong'in, zilzila, suv toshqini, qor ko'chishi, dovul, zaharlanish, yo'l transport hodisalari kabi falokatlar uchrab turadi. Farzandlarimizni ana shunday baxtsiz hodisalardan asrash esa barchamizning vazifamiz.

Quyida e'tiboringizga Iskandar Rahmonning ana shu mavzudagi she'rlaridan havola qilamiz. Shoyad, uni o'qigan o'quvchilar bunday vaziyatlarda qanday yo'l tutish lozimligi haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lsalar.

FALOKAT OYOQ
OSTIDADIR,
U JONING
QASDIDADIR!

Insonning hayotida
Uchrab turar falokat.
Har daqiqa, har yerda
Ehtiyot bo'lg'in faqat.


Bu – Oy, Quyosh, suv, havo,
Zamin bilan bog'liq ish.
Kim bilsa yashash sirin,
Umri o'tar betashvish.

Bular – yong'in, zilzila,
Suv toshqini balosi.
Zaharlanish, to'qnashish...
Aytсам, yo'qdir adosi.

Bu ofatlar odatda
Birdan selday keladi.
Kutilmagan fursatda,
Naq dovulday keladi.

Katta o'pqon og'zini
Yalmog'izday ochib zum.
Neki bo'lsa kemirib,
Hammayoqni qilar gum!

Kimki qilsa harakat,
Topar albat barakat!
Yo'qsa, chekar dil ozor,
Falokatdan alhazar!



Iskandar RAHMON

Chiqsang agar safarga,
Avval yaxshi niyat qil.
Sog'lig'ing asramoqni,
Eng muhim vazifa bil.

Yaxshi niyat yo'ldoshing,
Bo'lsin bolam, har safar.
Yaxshi bo'lsa niyating,
Sen yashaysan bexatar!

OGOH BO'LING,
ODAMLARI!

Ogoh bo'ling, odamlar,
Bulg'anmoqda tabiat!
Ozor chekib ilondek,
To'lg'anmoqda tabiat!

Bir qultum suv, sof havo,
Aslo nopok bo'lmasin!

Toki biror qumursqa,
Qush bolasi o'lmasin!

Asraylik eng bebaho,
Musaffo suv, havoni!
Jonimizga jon, malham,
Dardimizga davoni!

Ko'zimizni quvnatsin,
Chamanzorlar, bog'-rog'lar!
Tabiatning qo'ynida,
Yayrasin do'st-o'rtoqlar!

Biz bulbulcha, oqqushlar,
Sizga mador bo'laylik!
Sadoqatli, vafodor,
Asl hamkor bo'laylik!

1

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

Odil shoh bilan dono vazir yo'l-yo'lakay temirchining nochor ahvoliga achinib, unga qanday yordam berishni o'ylab, saroyga qaytib kelishibdi... Ikkovi maslahatni bir joyga qo'yib, shohona bir palov qildirishibdi. Bir hamyonga yuz tilloni joylab, chuqur tovoq tagiga qo'yishibdi. Oshni shom payti tog'dek uyib suzdargach, xizmatkorni chaqirib, shunday deyishibdi:

– Buni falonchi temirchining uyiga eltasan. Bu nasiba qayerdan ekanligini zinhor aytmayсан, – deb qattiq tayinlab jo'natishibdi.

Xizmatkor buyruqni aytilganidek bajo qilibdi.

Shundan so'ng, shoh bilan vazir tong otishini sabrsizlik bilan kuta boshlashibdi. Hukmdor:

– Umrida qo'lga bir tillo tanga ushlamagan temirchini butun umr yeb yotganda ham yetib, ortib qoladigan boylik ne ko'ylarga solar ekan-a? – debdi.

– Shohim, temirchiga boylikni ko'p berib yubordikmi, deyman-ov. Ishqilib, xursandchilikdan yuragi yorilib o'lmasa bo'lgani.

– Yo'g'-e, bosar-tusarini bilmay qoladigan tentak-devonaga o'xshamaydi.

– Endi qo'lga bosqon ham, bolg'a ham olmasa kerak.

Kim biladi. Tong otsin, bozor-o'char boshlansin-chi. Shuncha tilloning qudratini ko'ramiz...

NASIBA
(ERTAK)

Tong otibdi. Quyosh nayza bo'yi ko'tarilgan paytda shoh-u vazir janda, kulohlarini kiyib, qo'llariga hassa tutib, temirchilar mahallasiga yo'l olishibdi. Tanish deraza oldiga borishsa, ichkaridan bosqonning taraq-turuq urilishi eshitilibdi. Shoh vazirga qarabdi, vazir shohga. Yelka qisib hayron bo'lishibdi.

Asta borib eshikni qoqishgan ekan, bosqonning taraq-turuqidan temirchi eshitmabdi. Oxiri ikki musofir, ikki darvesh ustaxonaga o'zlari kirib borishibdi.

– Kelinglar, kelinglar, mehmonlar! – debdi temirchi ularni xushnudlik bilan kutib olib. Qo'lidagi bosqonni bir chetga qo'yib, yuzidagi qora termi yelkasidagi belboqqa artib, dasturxon yozibdi, kechagi qora qumg'onga olov yoqibdi. Dasturxonda yana o'sha-o'sha ikkita zog'ora bilan bir siqim turshak aralashgan jiyda bor emish.

– Bizlar qal'ani tomosha qildik. Endi qishlog'imizga ketayapmiz. Siz bilan xayrlashgani keldik, – debdi shoh.

– Na kecha, na kunduzni bilasiz, hech tinmas ekansiz-da, – debdi vazir.

– Kecha oqshom aytdim-ku hol-ahvoliimni.

Shoh-u vazir bir-birlariga sirli qarash qilishibdi. Temirchi juda hushyor, sezgir yigit ekan.

– Ha, tinchlikmi? Bugun salgina boshqacharoqsizlar?!

2

– Tinchlik, tinchlik, – debdi shoh.

Vazirning sabri chidamabdi:

– Kechagi tun qanday o'tdi?

– Har doimgidek, ishdan bosh ko'tarmadim...

– Kecha shomdan keyin, xuftondan oldin odatdan tashqari hech qanday voqea yuz bermadimi?

– Ha, ha, shomdan keyin qayerdandir bir tovoq palov tashlab ketishdi. Ollohg'a shukr, deb bola-chaqa bilan to'yib yedik. Ammo lekin bunday mazali, sergo'sht palovni umrim bino bo'lib yemagan edim.

– Xo'sh, keyin-chi, keyin?

– Nima «keyin»?

– Tovog'i qani?

– O'zimizga yetarli palovni ikki laganga suzib oldim. Keyin o'rtadagi uyumni buzmasdan, o'ng tomonimizdagi devor-darmiyon, qarovchisi yo'q, kambag'al bir qariya qo'shnimga, issig'ida yesin, deb tovog'i bilan chiqazib yuborgan edim.

– E voh, nasiba ekan-da! – debdi vazir.

– «Nasib etsa kelur Shom-u Iroqdan, nasib etmas – ketur qosh-u qovoqdan», deb shunga aytadilar, – debdi shoh.

– Tushunmadim. «Shom-u Iroq, qosh-u qovoq», deb nimaga sha'ma qilayapsizlar? Palovni sizlar yubormaganmidinglar mabodo?

– Yo'g'-e...

– Bo'lmasa, nega tovoqni so'raysizlar?

Shu payt juda haya-jonlangan chol-u kampir va bir qiz ustaxonaga kirib kelishibdi. Ularining qo'lida o'sha tovoq – o'rtasida bir hovuch tillo, yonida bo'm-bo'sh hamyon bor emish...

Qadam Sayid MUROD

(Davomi bor)



4



Mamlakatimiz bugun xalqaro maydonlarda qaddini tiklab oldi. Farizan qatga davr ichida o'z nufusiga ega bo'ldi. Diyorimiz dunyoga buyuk mutafakkirlar, olimlar, shoir va sarkardalarni tuhfa etgan beqiyos yurt. Istiqloлга erishgan yurtimizda ko'plab yangi-yangi ta'lim maskanlari, litsey va kollejlar qad rostladi. Respublika Olimpiya zahiralar kolleji (ROZK) ham ana shunday kasb-hunar kollejlaridan sanaladi. Uning bag'rini bu yil ham yuz nafar umidli sportchi bolalar to'ldirishdi. Biz mazkur o'quv maskani direktori, Mustaqilligimizning 20 yilligi ko'krak belgisi nishondori Murod aka ABIEV bilan suhbatda bo'ldik:

– Sizni, avvalo, Istiqlolning 20 yilligi ko'krak belgisi nishondori bo'lganingiz bilan kutlaymiz. Unvoningiz yildan-yilga ortib borishini tilaymiz.

– Rahmat!

– Murod aka, bugungi kunda o'zingiz boshqarayotgan mazkur kollejda bir vaqtlar o'quvchi bo'lgansiz. Kollejning bugungi hayoti haqida hikoya qilsangiz...

– Gapni sportchilar hayotidan boshlasam. Har qaysi kasbning o'ziga yarasha mashaqqati va rohati bo'ladi. Sportchi bolaning mehnatini uning ota-onasi hammadan ham yaxshi biladi. Farzandining yutuqlari bilan quvonish davri kelguncha, mashaqqatli mehnat, kamtarlik ularni g'oliblik taxtini egallashga yetaklaydi.

Men o'qigan paytlarda bu kollej respublikamizda yagona sanalardi. Endilikda esa yurtimizning barcha viloyatlarida, umuman, mamlakatimizda bolalar sportiga katta e'tibor qaratilyapti. Yurtboshimiz tashabbusi bilan joylarda ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlar faoliyat ko'rsatmoqda.

1987-yili mazkur kollejni tamomladim. Sportchilik faoliyatimni futbolchilik bilan yakunladim. Lekin sport hayotidan uzoqlasholmadim. «Chig'atoy» futbol maktabida direktor bo'lib ishladim. ROZK ga 2005-yildan buyon rahbarman. Biz tahsil olgan paytlarimizni bugungi kollej hayoti bilan taqqoslasak, osmon bilan yercha farq bor. 23 ta sport bo'limlarimizda (shundan 19 tasi olimpiya dasturiga kirgan) 700 nafar talabalar o'z mahoratlarini oshirmoqdalar. Ayni damda



Qadrli ustoz va murabbiylar, ayyomingiz muborak!

zamonaviy yengil atletika manejii, besh ming o'rinni stadion, 3 ta futbol maydoni, kurash, boks zallari, usti yopiq suzish havzasi, 450 o'rinni 3 ta yotoqxona, 350 o'rinni yangi oshxona, 630 o'rinni o'quv binosi, ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyasi, tibbiy qism, Toshkent viloyati hududida joylashgan Chimyon va Yangiobod sport bazalarimiz o'quv-

ehilar ixtiyorida. Davlatimiz sportchi bolalarimizni 4 mahal issiq ovqat, sport kiyimi va jihozlari, tibbiy-biologik tiklash vositalari bilan ta'minlaydi.

– Ayting-chi, kollejning asosiy vazifasi nima?

– Kollejimiz O'zbekistonning milliy terma jamoalari uchun sportchilar yetkazib beruvchi asosiy maskandir. Ularga 115

nafar tajribali murabbiylar saboq beradilar. Ustozlarimizning 15 nafaridan ziyodi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiylardir.

– Yaxshi bilamizki, «Barselona» futbol akademiyasida tahsil oluvchi o'quvchi ta'lim jarayonida qoniqsiz baho olsa, mashg'ulotlar va musobaqalardan chetlashtiriladi. Mazkur kollejdagi ta'lim jarayonida qanday tartib o'rnatilgan?

– Bizdagi tartib ham shunday. Buyuklar yurtining vorislari ularga munosib bo'lishlari kerak-da!

222 nafar o'quvchimiz milliy terma jamoalar a'zosi, 237 nafari esa a'zolikka nomzodlardir. Sport yo'llarini mana shu darghda tanlagan, hozirgi kunda

2010-yilda Osiyo qit'asida g'olib bo'lgan o'smirlarimiz 2011-yilda yurtimizga misli ko'rilmagan tarixiy g'alabani hadya etdilar. Futbol bo'yicha mamlakatimiz o'smirlar terma jamoa a'zolari Meksikada bo'lib o'tgan jahon chempionatida faxrli 8-o'rinni band etib, yorug' yuz bilan yurtga qaytdilar. Bizning o'quvchilarimiz erishgan bu olamshumul g'alaba ko'ksimizni tog' qildi.

– Murod Boqiyevich, bu yil kollejga sportchi bolalarni qabul qilish tartibi biroz o'zgardi, shundaymi?

– Albatta. Vazirlar Mahkamasining 163-Qarori hamda Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorligidagi maxsus xat asosida bu yil kollejimizga sportchi bolalarni qabul qilish kamaytirildi. Yigirmadan ortiq bo'limlarimizga 100 nafar mahoratliargina imtihondan o'tkazilib, saralab olindi. 150 nafar sportchi bola o'rni 100 nafar qabul qilinishi esa, yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, joylarda ixtisoslashtirilgan bazalarimizning mavjudligidir...

Murod akaning vaqti tig'izligi bois, suhbatimiz yakuniga yetmagandek bo'ldi... Yotoqxonadagi shart-sharoitlarga ham bee'tibor bo'lmagan jonkuyar, serg'ayrat rahbar bilan yana bafurja suhbatlashishni dilimizga tugib, xayrlashdik.

Ma'mura MADRAHIMOVA
suhbatlashdi

REPUBLIKA OLIMPIYA ZAHIRALARI KOLLEJI



2020-yilda ...



Yerdan boradigan robotlar uchun Oyda stansiya barpo etiladi. Olimlarning fikricha, bu loyihani Yaponiya olimlari amalga oshirishadi.

Amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlaridan yana biri London – Pekin yo'nalishi bo'yicha eng yuqori tezlikda harakatlanadigan temiryo'l qurilishidir. Bu ulkan yo'l Osiyo va Yevropadagi 17 ta davlatni birlashtiradi.

Ham yerda, ham havoda harakatlanadigan uchuvchi avtomobillar yaratiladi.

Sevimli kuchugim yo'qolib qolganida, naq sakkiz kun yig'lab yurdim, deng. Onam ham ezilib ketdilar. Bo'ldi-da, yig'layverasanmi, deya ko'zlari qora munchoqdek boshqa kuchukcha olib kelib berdilar. U shunaqayam kichkina ediki, asti qo'yaverasiz.

Ikki oy deganda uni katta qilib oldim, oyoqlari baquvvat bir kuchuk bo'ldiki, ko'rsangiz havasingiz keladi...

Bir kuni qizlar ko'chada «o'rta» tushar» o'ynashayotgan ekan. Men ham o'ynayman desam, bir qiz: «Sen hali kichkinasan, koptokdan qocha olmasan», deya meni itarib yubordi. Jahlim chiqib, hap senimi, deya uyg'a yugurdim. Bog'loqli turgan



kuchugimni yechib, ko'chaga olib chiqdim. Zerikib yotgan kuchugim ham shuni kutib turgan ekanmi, ko'chaga otildi. Arqoni qo'limga o'ralib qoldi. Uni yechish uchun bir silkitgan edim, kuchugim meni sudragancha qizlarni quva ketdi.

– Meni qutqaringlar, – deya baqirsam, ular:

– Bizni kim qutqaradi? – deya uy-uyilariga qochib ketishdi. Ilakishgan arqonni arang yechdim, hammayog'im shililib ketdi...

Birovga choh qazisang, unga o'zing yiqilasan, deganlari shu bo'lsa kerak-da...

Nazira ALIMBOBOYEVA, poytaxtdagi 114-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BOG' QANDAY TAQSIMLANDI?



Bir bog'bonning katta, chiroyli bog'i bo'lgan ekan. Uning to'rt nafar farzandi: ikki qizi va ikki o'gli bo'lib, ular otalaridan bog'ni teng bo'lib berishini so'rashibdi.

– Yoz kelgach esa kimning bog'ida gullar ko'pligini va kim eng zo'r bog'bon ekanligini aniqlaymiz, – deyishibdi ular.

– Juda yaxshi, – debdi bog'bon. – Men bog'ni har biringizga teppa-teng bo'lib beraman.

– Biz buni qanday uddalashingizni bilmayapmiz, – debdi katta o'g'li, hayratlanib. – Axir bu u qadar oson ish emas-ku...


Biroq ota so'zining ustidan chiqib, bog'ni ularga teng bo'lib taqsimladi va farzandlari bu ishdan mamnun bo'lishibdi.

Qani, aytinch bolalar, ota qanday qilib farzandlariga bog'ni teng taqsimlagan? Javoblaringizni kutamiz!

Ingliz tilidan Dildora OTAQULOVA tarjimasi. Guliston Davlat universiteti talabasi

«A» DAN «A» GACHA

BOSHQOTIRMASI



1. Poytaxti Tirana shahri bo'lgan davlat.
2. Dunyo okeanlaridan birining nomi.
3. 1605-yili L.V.Torres tomonidan kashf etilgan qit'a.
4. Isbot talab qilmaydigan ta'rif.
5. Daryo (Braziliya).
6. Poytaxti Vena shahri bo'lgan davlat.
7. Qadimiy qazilmalarni o'rganuvchi fan.
8. Uzunligi 10 metrdan kam bo'lmagan, o'ljasini butun yutuvchi ilon.
9. Mashhur futbolchi Lionel Messining Vatani.
10. Turkiya davlati poytaxti.
11. Jazoidagi shahar.
12. Yer sharining janubiy qismi.
13. Osmon jismlarini o'rganuvchi fan.
14. Amazonka daryosida joylashgan o'rmon.
15. Poytaxti Valli, maydoni 96000 kilometr bo'lgan davlat.
16. 1492-yil 12-oktabr kuni kashf etilgan qit'a nomi.
17. Andijondagi avto-shahar nomi.

Tuzuvchi: Amirxon MAJIDOV, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 63-ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 8-sinf o'quvchisi

ENG, ENG, ENG

Dunyodagi eng baland bo'yli erkak 1814-yilda tug'ilgan amerikalik Robert Pershing Uoldou bo'lgan ekan.

Uning bo'yi 2 metr-u 72 santimetr, vazni 222 kilogramm bo'lgan.

Aytishlaricha, uning bo'yi umrining so'nggi kunlarigacha o'sishdan to'xtamagan.

Eng ozg'in ayol meksikalik Lyuchiya Sarata bo'lgan ekan. XIX asrda yashab o'tgan bu xonimning bo'yi 67 santimetr, vazni esa 2 kilogramm-u 13 gramm edi.

Eng xipcha bel sohibasi

XX asr boshida yashab o'tgan ingliz qizi Etil Ggeynjer ekan. Uning bel aylanasi 33 santimetriga bo'lgan.

Eng katta maydonga ega qurilma «Boing» kompaniyasining Everettdagi yig'ish sexi hisoblanar ekan (AQSH). Uning kengligi 13 million kvadrat metrni tashkil qiladi.

DILOROM tayyorladi

Tong yulduzi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'loqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
Feruz MATYOQUBOV
Navbatchilari:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31984
Buyurtma N: J 2723